O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA O‘Q OTISH TAYYORGARLIGI BO‘YICHA TINGLOVCHI VA KURSANTLARNING BILIMLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich
katta o‘qituvchi, Jangovar tayyorgarlik sikli,
Malaka oshirish instituti, IIV

https://doi.org/10.5281/zenodo.15287495

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘q otish tayyorgarligida zamonaviy o‘qitish metodlarini joriy etishning ahamiyati tahlil qilingan. Interaktiv simulyatorlar, virtual voqelik platformalari va geymifikatsiya kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali tinglovchi va kursantlarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari muhokama qilingan. O‘zbekiston Respublikasida harbiy va huquqni muhofaza qilish sohalarida o‘qitish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha xorijiy tajribalardan foydalanish tavsiya etilgan.

KALIT SO‘ZLAR

o‘q otish tayyorgarligi, zamonaviy texnologiyalar, interaktiv simulyatorlar, virtual voqelik, geymifikatsiya, O‘zbekiston, harbiy ta’lim.

АННОТАЦИЯ

В данной стате проанализировано значение внедрения современных методов обучения в процесс подготовки к стрелбе. Обсуждаются возможности исползования инновационных технологий, таких как интерактивные симуляторы, платформы виртуалной реалности и геймификация, для развития знаний и навыков слушателей и курсантов. Предложено исползование зарубежного опыта для совершенствования процесса обучения в военной и правоохранителной сферах в Республике Узбекистан.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

подготовка к стрелбе, современные технологии, интерактивные симуляторы, виртуалная реалност, геймификация, Узбекистан, военное образование.

ABSTRACT

This article analyzes the importance of introducing modern teaching methods in shooting training. The potential of innovative technologies such as interactive simulators, virtual reality platforms, and gamification to enhance the knowledge and skills of trainees and cadets is discussed. The use of international experience to improve the training process in the military and law enforcement sectors in the Republic of Uzbekistan is recommended.

KEY WORDS

shooting training, modern technologies, interactive simulators, virtual reality, gamification, Uzbekistan, military education.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki yillardanoq ta’lim-tarbiya sohasini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Tarixan qisqa davr mobaynida mamlakatimizda bu sohada juda ulkan ishlar amalga oshirildi va bugungi kunda ham jadal davom ettirilmoqda.

O‘qitishning zamonaviy metodlarini ta’lim tizimiga joriy qilish zamonaviy kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda o‘qituvchi uchun o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lish va bilimga chanqoq yoshlar bilan to‘la auditoriyaga katta hajmdagi bilimlarni berishning o‘zi yetarli emas. O‘tkazilgan ko‘pgina tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra, o‘qitishga yangicha qarash, ilm oluvchilarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish bilim berishning eng samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi. Oddiy so‘z bilan aytganda, ilm oluvchilar o‘quv jarayoniga faol jalb qilingandagina berilayotgan materiallarni oson idrok etadi, tushunadi va eslab qoladi. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda asosiy metodik innovatsiyalar o‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llashni taqozo etadi [1].

“O‘qitish metodi” tushunchasining ko‘plab ta’riflari mavjud, ammo asosiy ma’noda u o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik usuli sifatida ta’riflanadi, bu o‘qitish maqsadiga erishishga qaratilgan.

Bunda badiiy, falsafiy va aniqroq ta’riflar ham mavjud:

“Bu – tabiat va jamiyat hayoti hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli, harakat tarzi yoki yo‘nalishi, haqiqatga olib boruvchi yo‘ldir.”

O‘qitish usullari tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Unda jamiyatning kichik a’zolari kattalar namunasida o‘qitilardi. Mazkur jarayon shartli ravishda 4 inqilobiy bosqichdan o‘tadi:

1. O‘qitish bilan maxsus pedagoglar-o‘qituvchilar shug‘ullana boshlagan payt.
2. Ogzaki nutq o‘rnini yozma nutq egallay boshlagan bosqich.
3. Matnli so‘zlarni nashr qilish amaliyoti joriy etilgan davr.
4. Ta’limning avtomatizatsiyasi va kompyuterlashuvi [2].

Inson faoliyatining barcha sohalariga texnologik vositalarni joriy etib borar ekan, uning zarurati jamiyat va davlatda yuz bergan o‘zgarishlar bilan belgilanadi. Zamonaviy texnologiyalar katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash imkonini beruvchi tamomila yangi darajadagi axborotni aks ettirish imkoniyatini ochib bermoqda. Bu holat zamonaviy axborot texnologiyalarining resursli imkoniyatlari tufayli sifat jihatidan yangi darajaga chiqishni ta’minlash maqsadida tinglovchi va kursantlarni o‘q otishga tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O‘q otish tayyorgarligi esa harbiy ta’limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda harbiylar va huquqni muhofaza qilish organlariga qo‘yiladigan talablar tobora oshib bormoqda. Shu sababli o‘qitishning zamonaviy metodlaridan samarali foydalanish orqali tinglovchi va kursantlarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratish g‘oyatda ahamiyatlidir. Darhaqiqat, bugungi kunda ta’lim jarayonida an’anaviy usullar zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilib, kursantlarga nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikmalarni ham mukammal o‘zlashtirish imkonini bermoqda.

Shuningdek, mamlakat va dunyodagi jinoyatchilik vaziyatining tobora murakkablashib borishi va ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy o‘zgarishlar tinglovchi va kursantlarning o‘q otish tayyorgarligining asosiy vazifalaridan birini – zamonaviy texnologiyalar yutuqlari yordamida ta’lim sifatini oshirishni belgilanishiga sabab bo‘lmoqda.

Misol uchun, tinglovchi va kursantlarning o‘q otish ko‘rikmalarini shakllantirish va takolmillashtirishda multimedia vositalaridan keng foydalanish xalqaro tajribaga aylanib bo‘lgan. Multimedia vositalari dasturiy ta’minot sifatida xizmat qilib, audiovizual ma’lumotlar, grafikalar, animatsiya va matnni birlashtiradi. Ular maxsus bilim, ko‘nikma yoki tayyorgarlik talab qilmasdan hajmli modellarni yaratishni ta’minlaydi. Axborotni aks ettirish uchun faqat kompyuter texnikasi, interaktiv doskalar va mos dasturiy ta’minot zarur. Bundan tashqari, multimedia vositalari ta’lim muassasalarining o‘quv resurslariga (elektron qo‘llanmalar, ta’lim va nazorat dasturlari) kirish imkoniyatini ta’minlaydi, ular o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda

o‘rganilishi yoki o‘quv quroli, qurollanish va texnikaning yetishmovchiligini qoplash uchun nusxa ko‘chirilishi mumkin.

Amaliyot shundan dalolat bermoqdaki, o‘q otuvchini shakllantirishning asosiy mezoni maqsadni aniq nishonga olishdan iborat. Otilgan o‘q natijasi – nishonga tegish – texnik usullar va otishni amalga oshirish usullari bo‘yicha bajariladigan to‘g‘ri harakatlarga bog‘liq [3].

Yuqori natijalarga erishish uchun esa, o‘q otish mashg‘ulotlarini muntazam ravishda o‘tkazish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zarur. Shu bilan birga, o‘quv jarayonining samaradorligi, birinchi navbatda, o‘quvchilarning mas’uliyati va o‘zlashtirish qobiliyatiga, ikkinchidan esa, o‘qituvchilarning otish tayyorgarligiga bo‘lgan yondashuviga bog‘liqdir. Bunda har bir tinglovchi va kursant uchun individual usul va vositalar to‘plamini aniqlash orqali ta’lim berish kerak [4].

Bugungi iqtisodiy cheklovlar va o‘q otish tayyorgarligi mashg‘ulotlarining mehnat talabini kamaytiruvchi omillarga qaramay, ta’lim samaradorligini oshirish muammosi hal qilinishi zarur. Bunda o‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalarini, xususan, kompyuter va lazer otish trenajyorlarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vositalar yordamida otish malakasini shakllantirish va otish texnikasini takomillashtirish bo‘yicha muammolar hal etiladi.

Zamonaviy texnik vositalar otuvchilarni tayyorlashda o‘z mavqeini mustahkamlaganini hisobga olgan holda, aynan multimedia texnologiyalari keng rivojlandi. Ular axborotni yangi darajada aks ettirish va inson-kompyuter o‘zaro ta’sirining interaktivligini ta’minlaydi [5].

O‘q otish tayyorgarligida zamonaviy metodlarning afzalligi shundaki, ular yordamida o‘quv jarayonining samaradorligi bir necha barobar ortishi mumkin. Buning uchun virtual voqelik (VR), interaktiv simulyatorlar va tir otish trenajyorlari kabi yangi texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Bunday texnologiyalar kursantlarga xavfsiz muhitda, real vaziyatlarga yaqin sharoitlarda mashq qilish imkoniyatini taqdim etadi. Masalan, virtual voqelik platformalari orqali turli qiyinchiliklarga ega bo‘lgan tir otish ssenariylari yaratilib, tinglovchilarning tezkorlik bilan to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati rivojlantiriladi.

O‘q otish mashg‘ulotlarida simulyatsiya va interaktiv o‘quv dasturlaridan foydalanish tinglovchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi. An’anaviy o‘quv jarayonlarida bir taraflama bilim berishga e’tibor qaratilishi mumkin bo‘lsa, zamonaviy metodlar orqali tinglovchilar o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Bunday yondashuv ularning bilimni o‘zlashtirish

darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, elektron trenajyorlar va tir otish simulyatorlari tinglovchilarning xatolarini avtomatik aniqlash va ularni tahlil qilish imkonini taqdim etadi, bu esa kursantlarning bilim va ko‘nikmalarini yanada takomillashtirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, zamonaviy o‘qitish usullari tinglovchilarga nafaqat texnik ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, balki psixologik tayyorgarlikni ham oshirish imkonini yaratadi. Tir otish jarayonida stress va bosim sharoitida ishlash harbiylar uchun muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy simulyatsiya platformalari orqali kursantlar stressga moslashish va xavfli vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bunday yondashuv ularning ishonchlilik va professionallik darajasini oshiradi.

O‘q otish tayyorgarligida geymifikatsiya (o‘yinlashtirish) usullaridan foydalanish ham alohida ahamiyatga ega. Masalan, tir otish mashg‘ulotlarida kursantlar o‘rtasida ochkolar tizimi orqali raqobat muhiti yaratish mumkin. Bunday metod kursantlarning o‘quv jarayoniga qiziqishini oshiradi va ularni yanada faol bo‘lishga rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, geymifikatsiya orqali o‘quv jarayoni nafaqat samarali, balki qiziqarli ham bo‘ladi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda tinglovchilar va kursantlar bilan “O‘q otish tayyorgarligi” mashg‘ulotlarini o‘tkazishda zamonaviy texnologiyalar tatbiq etilgan. Ammo, asosan 1991 yilda Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan “Skatt” va “Rubin” trenajerlaridan foydalanilmoqda [6]. O‘ylashimizcha, harbiy sohada yuksak taraqqiyotga erishgan chet el davlatlaridagi tajribalarni ham amaliyotga tatbiq etish sohada ancha yuqori samara beradi. Hozirgi zamonaviy dunyoda harbiy va xavfsizlik sohalarida kadrlar tayyorlashda davlatlar orasida raqobat kuchaymoqda. AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda o‘qitishning zamonaviy metodlari keng joriy qilingan bo‘lib, ular bu orqali harbiy tayyorgarlik sifatini oshirishga muvaffaq bo‘lgan. Quyida o‘q otish trenajerlariga analog bo‘lgan ayrim davlatlarning trenajerlarini tavsiflaymiz:

AQSh zamonaviy simulyatorlar va interaktiv platformalar keng taraqqiy etgan bo‘lib, “EST 2000 (Engagement Skills Trainer)” trenajeri tir otishni o‘rgatish uchun jismonan xavfsiz muhitda ishlatiladigan simulyator bo‘lib, AQSh armiyasida keng qo‘llaniladi. Kursantlar virtual tir otish mashqlarini amalga oshiradi va avtomatlashtirilgan baho oladi. “EST 2000 (Engagement Skills Trainer)” amaliy mashg‘ulotlar uchun vaqt va resurslarni tejash, real hayotdagi vaziyatlarni yaratish orqali kursantlarning reaksiya tezligini oshirish va har bir tinglovchiga individual yondashuvni ta’minlash kabi samaradorliklarga ega [7];

Buyuk Britaniyada real vaqt tahlili va virtual trenajyorlar masalasi ilg‘orlikni namoyon etmoqda. Buyuk Britaniyaning armiya ta’lim markazlarida (British Army Training Centre) va politsiya o‘quv dasturlarida Dismounted Close Combat Trainer (DCCT) trenajyorlaridan foydalaniladi.

DCCT – bu tir otish bo‘yicha virtual trenajyor bo‘lib, u tir otish ko‘nikmalarini o‘rganish va ularni aniq tahlil qilish imkonini beradi. Tinglovchilar tir otish taktikalarini xavfsiz muhitda o‘rganadilar va har bir tirni avtomatik tahlil qiladilar. DCCT tahlil platformalari orqali kursantlarning natijalarini aniq baholash, qat’iy va xavfsiz nazorat ostida tir otish mashqlarini amalga oshirish hamda real hayotdagi o‘q otish jarayonlariga o‘xshash shart-sharoitlarni yaratish borasida dominantlikni namoyon etmoqda [8];

Germaniya avtomatlashtirilgan tir maydonlari va texnologik o‘qitish yo‘nalishlari yuqori natijadorlikni namoyon etmoqda. Germaniya armiyasi (Bundeswehr) harbiy xizmatchilarni tayyorlashda AGSHP (Ausbildungsgerät Schießsimulator Handwaffen/Panzerabwehrhandwaffen) simulyatsiya tizimidan foydalanadi. Bu tizim avtomatik ravishda tir otishni tahlil qiladi va har bir tinglovchiga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Shuningdek, Germaniyada harbiylar virtual voqelik (VR) texnologiyalarini qo‘llaydi, bu esa tir otish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun xavfsiz muhit yaratadi. Zamonaviy tir otish maydonlari avtomatlashtirilgan qurilmalar bilan jihozlangan bo‘lib, ular tir otish mashg‘ulotlarining to‘liq nazoratini ta’minlaydi. Bu esa o‘z navbatida, kursantlarning tir otish texnikasini avtomatlashtirilgan tarzda baholash, xavfli sharoitlarda o‘zini tutish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda cheklangan resurslar bilan ko‘proq mashg‘ulotlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi [9].

O‘q otish tayyorgarligi jarayonida mazkur zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish nafaqat vaqt va resurslarni tejashga yordam beradi, balki tinglovchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham hissa qo‘shadi. Shuningdek, harbiy ta’lim jarayonida zamonaviy metodlarni qo‘llash orqali davlatning harbiy salohiyatini oshirish mumkin. O‘quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni kiritish va ularni an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirish kursantlarning malakasi va professional tayyorgarligini yuqori bosqichga olib chiqadi. Tinglovchilarning bilimini mustahkamlash, ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va zamonaviy qurollarni boshqarish qobiliyatini oshirish harbiy ta’limning asosiy maqsadi hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘q otish tayyorgarligi jarayonida zamonaviy o‘qitish metodlarini joriy qilish kursantlarning bilim va ko‘nikmalarini sifatli ravishda shakllantirishga zamin yaratadi. Interaktiv simulyatorlar, virtual voqelik va geymifikatsiya kabi usullar orqali ta’lim jarayoni yanada samarali bo‘ladi. Bu esa nafaqat harbiy ta’lim tizimini rivojlantirishga, balki davlatning umumiy harbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Tinglovchi va kursantlarning o‘q otish ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish katta istiqbollarga ega. “O‘q otish tayyorgarligi” kursi bo‘yicha mashg‘ulotlarda zamonaviy o‘quv texnologiyalaridan foydalanish O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimi uchun malakali va yuqori darajada tayyorlangan kadrlarni tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ular o‘qish jarayonining yakunida zarur bilim, ko‘nikma va qurol bilan ishlash mahoratiga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ў.Х.Муҳамедов ва бошқалар. “Таълимни ташкил этишда замонавий интерфаол методлар” // Ўқув-услубий тавсиялар – Т., 2016, 3-бет;
2. https://www.sravni.ru/kursy/info/metody-obucheniya/;
3. Юсупов О.А., Афанасьев А.В., Психологические и тактические особенности огневой подготовки сотрудников полиции / Научный компонент 2019 № 2 (2). С. 115-121;
4. Васильева Т.Б., Исползование электронных стрелковых тренажеров в методике преподавания огневой подготовки в образовательных организациях МВД России // Научный компонент. 2019 № 3 (3) С. 157-162.;
5. Светличный Е.Г. Эффективность исползования интерактывных методов обучения для совершенствования навыков владения стрелковым оружием // Педагогика и современность. 2015. №2 (16). С. 36-43;
6. https://yedushooting.ru/2021/01/05/strelkovyj-trenazher-skatt/;
7. https://www.peostri.army.mil/yest;
8. https://www.army.mod.uk;
9. https://www.bundeswehr.de.